

JAMOAT JOYI TUSHUNCHASINING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI: MUOMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Reimbaeva Iroda Maxmut qizi

**Berdoq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti yuridika fakulteti yurisprudensiya
yo'nalishi 2-kurs talabasi**

e-mail: reimbaevairoda64@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18982188>

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamoat joyi tushunchasining huquqiy mazmuni, uning qonunchilikdagi ahamiyati va amaliyotda uchrayotgan tartibga solish muammolari tahlil qilinadi. Jahon hamda milliy qonunchilikda "jamoat joyi" tushunchasi, uning mazmun mohiyatini va qo'llanish sohalari o'rganilgan. Shuningdek, amaldagi qonunchilikda mazkur tushunchaning aniq ifodalanmaganligi, turli normativ-huquqiy hujjatlardagi nomutanosibliklar va ularning huquqni qo'llash amaliyotida yuzaga keltirayotgan muammolari tahlil etilgan. Ushbu tadqiqot natijasida jamoat joyi tushunchasining mazmuni va qo'llanish tartibi ko'rsatilib, uning samarali tartibga solinishi haqida yoritib beriladi.

Kalit so'zlar : jamoat joyi, jamoat tartibi, qonunchilikdagi muommalar, huquqiy tartibga solish, javobgarlik choralari.

LEGAL REGULATION OF THE CONCEPT OF PUBLIC PLACES: PROBLEMS AND WAYS OF IMPROVEMENT

Abstract: This article analyzes the legal meaning of the concept of public space, its significance in legislation, and regulatory problems encountered in practice. The concept of "public place" in world and national legislation, its content, essence, and areas of application have been studied. Also, the lack of a clear definition of this concept in the current legislation, inconsistencies in various regulatory legal acts, and the problems they cause in law enforcement practice are analyzed. As a result of this study, the content of the concept of public space and the procedure for its application are shown, and its effective regulation is highlighted.

Keywords: public place, public order, problems in legislation, legal regulation, liability measures.

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ПОНЯТИЯ ОБЩЕСТВЕННЫХ МЕСТ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье анализируется правовое содержание понятия общественного места, его значение в законодательстве и проблемы регулирования, встречающиеся на практике. В мировом и национальном законодательстве изучено понятие "общественное место," его содержание и сферы применения. Также проанализированы отсутствие четкого выражения данного понятия в действующем законодательстве, несоответствия в различных нормативно-правовых актах и проблемы, которые они создают в правоприменительной практике. В результате этого исследования будет показано содержание и порядок применения понятия общественного места, а также освещено его эффективное регулирование.

Ключевые слова: общественное место, общественный порядок, проблемы в законодательстве, правовое регулирование, меры ответственности.

Mustaqillik yillaridan so'ng O'zbekiston Respublikasida huquqiy demokratik davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida jamoat joylarida tartibni ta'minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, jamoat joylari fuqarolarning kundalik hayoti, dam olishi, mehnat faoliyati va ijtimoiy munosabatlari kechadigan asosiy makoni hisoblanadi. Shu sababli, ushbu joylarda huquqiy tartibning samarali ta'minlanishi bevosita fuqarolarning huquqlari, tinchligi, xavfsizligi va qonuniy manfaatlarining himoya qilinishiga ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda "jamoat joyi" tushunchasining huquqiy tartibga solinishi bir qator muammolarga duch kelmoqda. Xususan, amaldagi qonunchilikda "jamoat joyi"ning yagona konseptual ta'rifi mavjud emas. Turli kodekslar va qonun osti hujjatlarida ushbu tushunchaga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, bu huquqni qo'llash amaliyotida qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Ba'zi hollarda bir hudud bir normativ hujjatda jamoat joyi sifatida baholansa, boshqa bir hujjatda bu maqom e'tibordan chetda qolmoqda. Bunday nomutanosiblik huquqbuzarliklarga qarshi kurashish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi Mazkuz maqolada jamoat joyi tushunchasining huquqiy tartibga solinishidagi aniqsizliklar va natijada kelib chiqayotgan masalalar haqida tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, tushunchaviy noaniqlik fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishda to'siqlar yaratibgina qolmay, balki huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni belgilashda ham ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltirmoqda.

Asosan jamoat joylari fuqarolar erkin harakatlanishi, dam olishi va xizmatlardan foydalanishi uchun mo'ljallangan ochiq va yopiq hududlardir. Milliy qonunchilik normalarida esa jamoat joyi tushunchasiga aniq ta'rif va yagona yondashuv bo'lmaganligi bois birqancha ziddiyatlarga sabab bo'lmoqda. Asosan quyidagi qonun hujjatlarida jamoat joylari ro'yxati keltirilgan:

Jamoat joylarida chilim va elektron sigaretalar chekishni cheklash to'g'risida»gi Qonunning 6-moddasida quyidagilar jamoat joyi deb ta'kidlangan [1]: statsionar savdo ob'yektlari, umumiy ovqatlanish korxonalari, kinoteatrlar, teatrlar, sirkalar, konsert, ko'rik va ko'rgazma zallari hamda ommaviy dam olish uchun mo'ljallangan boshqa yopiq inshootlar, klublar, diskotekalar, kompyuter zallari, internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish uchun jihozlangan xonalar yoxud boshqa ko'ngilochar (bo'sh vaqt o'tkaziladigan) joylar; muzeylar, axborot-kutubxona muassasalari va ma'ruzaxonalar, mahalliy va uzoqqa qatnaydigan poyezdlar, shahar atrofiga qatnaydigan poyezdlarning vagonlari (shu jumladan tamburlari), daryo kemalari, shaharda, shahar atrofiga, shaharlararo va xalqaro qatnaydigan avtobuslar, taksilar, yo'nalishli taksilar hamda shahar elektr transporti, havo kemalari, yer osti o'tish joylari, transport bekatlari va avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash joylari, aeroportlarning, temir yo'l, avtomobil vokzallarining va suv transporti bekatlarining binolari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining, xo'jalik boshqaruvi organlarining, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning binolari, sog'liqni saqlash tizimi muassasalari va tashkilotlari, ta'lim muassasalari, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlari, ish joylari bo'lgan xonalar, ko'p kvartirali uylarning yo'laklari, shuningdek uylar oldi hududida joylashgan bolalar va sport maydonchalari, xiyobonlar, bog'lar, ko'chalar.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining *“Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida”gi qonun 19-moddasida* ish joylari, ko'chalar, stadionlar, xiyobonlar, istirohat bog'lari, jamoat transportining barcha turlari,

sog'liqni saqlash, ta'lim, sport- sog'lomlashtirish muassasalari, yong'in chiqish xavfi bo'lgan joylar, shu jumladan avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchalari jamoat joylari guruhiga kiritilgan.[2] Bundan tashqari, *Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi Qonunning 16-moddasida* ko'chalar, maydonlar, istirohat bog'lari, transport magistrallari, vokzallar, aeroportlar jamoat joyi hisoblansa[3], Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 1883-moddasi («Tilanchilik qilish») aeroportlar, vokzallar, xiyobonlar, istirohat bog'lari, bozorlar va savdo majmualari hududlari, shuningdek ularga tutash hududlar, avtomototransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, ko'chalar, stadionlar, bekatlar, yo'llarning qatnov qismi, moddiy madaniy meros ob'yektlari joylashgan hududlar, jamoat transportining barcha turlari va boshqa jamoat joylari siraga kiritilgan.[4]

Bu qonun hujjatlarda belgilangan joylar ham jamoat joyi tushunchasidagi muommalarga to'laqonli yechim deb ta'kidlay olmaymiz. Chunki, jamoat joyi tushunchasi ko'pincha "omnaviy joy", "ko'pchilik qatnaydigan joy", "ochiq joy" kabi tushunchalar bilan aralashtiriladi. Bu esa, ayniqsa, jinoyat ishlarini tergov qilishda (masalan, bezorilik jinoyatlari) yoki ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirishda huquqbuzarlikni kvalifikatsiya qilishni qiyinlashtiradi. Shu muommolardan kelib chiqib, birqancha huquqshunos olimlarimiz ushbu jamoat joyi tushunchasiga o'z fikr mulohazalarini bildirgan. Ulardan A. Xudayberdiev va Yu. Iskandarovlar jamoat joyini xususiyatiga ko'ra 3 guruhga bo'lishni lozim ko'rishgan bo'lib ular quyidagilar[5]:

doimiy jamoat joylari – ko'chalar, maydonlar, xiyobonlar, sohillar, tegishli idoralar tomonidan kecha-yu kunduz faoliyat olib borishiga ruxsat berilgan dam olish maskanlari, jamoat transportlari;

davriy jamoat joylari – tegishli idoralar tomonidan kunlik va mavsumiy ish vaqti belgilab berilgan joylar, ya'ni plyajlar, usti ochiq va yopiq kinoteatrlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini terib olish uchun fuqarolarning uyushgan holda to'planadigan dala maydonlari, muzeylar, kutubxonalar, klublar, barcha turdagi davolanish muassasalari (ichki tartib-qoidalarga ko'ra tashrif vaqti belgilangan, ya'ni bemorlarni ko'rishga kelganlarning kirishiga ruxsat berilgan vaqtlar), umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat ko'rsatish joylari, choyxona, restoran, bar, kafelar kiradi (kirish-chiqish joylari alohida nazoratga olinganlari bundan mustasno);

bir martalik jamoat joylari – fuqarolarning uyushgan holda shahar tashqarisidagi ochiq maydonlarga, tog'larga va adirliklarga sayilga chiqish joylari; ko'cha – sutkaning har qanday vaqtida barcha uchun ochiq bo'lgan joylar, ya'ni transport yoki piyodalar harakatlanadigan yo'laklar, ko'chalar, maydonlar, xiyobonlar, sohillar, ko'priklar, estakadalar, jamoat transportlari bekatlari, plyajlar, bozorlar, istirohat bog'lari (faoliyat olib borish vaqti chegaralanmagan bo'lsa), tor ko'chalar, boshi berk ko'chalar, umumiy hovlilar (xususiy hovlilar hamda eshiklari yopiladiganlari bundan mustasno), ko'p qavatli uylarning pod'ezdlari, o'rmon park zonalari, karerlar, yalangliklar, ochiq suv havzalarining qirg'oqlari va bevosita suv havzalarini jamoat joylari deb biladi.

Shu nuqtai nazardan IIV tomonidan ishlab chiqilgan qonunda ham jamoat joylari haqida ta'kidlab o'tilgan. Unda jamoat joyi deganda to'siqsiz kirish (bo'lish) uchun ochiq bo'lgan, yoxud fuqarolarning turli ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun mo'ljallangan joydagi uchastkalar, binolar, xonalar, inshootlar, ularning qismlari, shuningdek transport kommunikatsiyalarini tushunish taklif etilgan. Jamoat joylari tasnifi esa ularning ochiq bo'lish vaqti mezoniga qarab quyidagicha ajratilgan:

1. doimiy tushdagi – hududda fuqarolarning doimiy bo'lishi yoki doimiy bo'lish imkoniyati, muayyan vaqtda faoliyat yuritish rejimi belgilanmagani va fuqarolar doimiy yashaydigan ob'ektlarning mavjud bo'lishi bilan tasniflanadi. Bular – transport magistrallari, ko'chalar, turar joy dahalari, mahallalar, mavzalar, mikrorayonlar hududlari, aeroportlarning, temir yo'l, avtomobil vokzallarining va suv transporti bekatlarining binolari va h.k.;

2. vaqtincha tushdagi – fuqarolarning vaqtincha bo'lishi yoki vaqtincha bo'lish imkoniyati, muayyan vaqtda faoliyat yuritish rejimi belgilangani va fuqarolar doimiy yashaydigan ob'ektlarning mavjud emasligi bilan tasniflanadi. Ularga xiyobonlar, maydonlar, madaniyat va istirohat bog'lari, savdo, ko'ngilochar, savdo-ko'ngilochar komplekslari va markazlari, gipermarketlar, supermarketlar, bozorlar va fuqarolar ommaviy to'planadigan boshqa joylar va h.k. kiradi;

3. bir martalik tushdagi – ommaviy jamoat, qishloq xo'jaligi yoki boshqa ishlar va tadbirlarni, shu jumladan ular ommaviy bo'lgan paytda tantanali tadbirlar, diniy marosimlarni o'tkazish paytida ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan ob'ektlar va joydagi alohida uchastkalar.

Yuqarida aytilgan qonunchilikdagi bu normalar ham jamoat joyi tushunchasining aniq mazmuni emas. Buning natijasida jinoyat kodeksi va ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda ham birqancha ziddiyatlar kelib chiqmoqta. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining ayrim moddalarini qo'llash jarayonida bir qator tushunmovchiliklarga sababchi bo'lmay qolmaydi. Zero, MJtKda qayd etilgan jamoat joylarida tamaki mahsulotini iste'mol qilish (561-m.), mayda bezorilik (183-m.), fuqarolarning jamoat joylarida ibodat liboslarida yurishi (1841-m.), jamoat joylarida alkogol mahsulotini iste'mol qilish (187-m.), tilanchilik qilish (1883-m.), kabi huquqbuzarliklar nazarda tutilgan moddalarni qo'llashda bevosita "jamoat joyi" tushunchasiga duch kelamiz. Yuqorida qayd etganimizdek, qonunchiligimizda "jamoat joyi" tushunchasining aniq, yagona ta'rifi mavjud emasligi sabab qonunchilikda ham muommalar kelib chiqmoqda. Bu muommalarning oldini olish maqsadida jamoat joylarida odob-axloq qoidalari ham belgilab berilgan. Yani yuqorida aytilgan qonunchilik hujjatlariga asos jamoat joylarida quyidagilar taqiqlangan:

- tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish, shuningdek, chilim va elektron sigaretalar chekish;
- uyatli so'zlar bilan so'kinish, haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarni sodir etish;
- alkogol mahsulotini iste'mol qilish;
- tilanchilik qilish;
- it va mushuklarni tumshuqbog'siz va yetovsiz olib yurish;
- karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo'lishi hamda tarqalishi sharoitida vakolatli organning maxsus talablariga zid ravishda niqobsiz bo'lish.
- belgilanmagan joylarda cho'milish, fuqarolarning cho'milish kiyimlarida plyajdan tashqari joylarda yurishlari;
- jamoat joylarida, xususan belgilanmagan hududda hamda ko'cha va yo'llarning qatnov qismida transport vositalarini yuvish;
- yirik va mayda shoxli chorva mollari, ot, eshaklar hamda xonaki parrandalarni ko'chalar, maydonlar, istirohat bog'lari va boshqa jamoat joylariga qo'yib yuborish yoki boqish;
- maishiy va qurilish chiqindilarini belgilanmagan joylarga tashlash yoki yig'ish.

Jamoat joylarida mazkur xatti-harakatlarni sodir etish ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Shuni aytish lozim, bu ko'rsatilgan tartibsizliklarning barchasi jamiyatda fuqarolarning befarqligi, yurish-turish qoidalarini pisand qilmasligi natijasida sodir bo'lmoqda. Bu harakatlar nafaqat bitta odamning, jamiyattagi barchasining huquqlarining buzilishiga olib kelmoqda. Shuning uchun fuqarolar jamoat joylarida tartibni saqlash uchun muhim qoidalarini yodda tutishlari lozim. Ular quyidagilar ;

1) Jamoat joylaridagi barcha qonun va qoidalarga amal qilish. Bunda asosan jamoat joylarida tamaki chekish, spirtli ichimliklar iste'mol qilish yoki ovozni balandlatish kabi taqiqlangan harakatlardan tiyilish nazarda tutiladi.

2) Boshqa fuqarolarga nisbatan hurmat va odobni saqlash. Ushbu qoida navbatda turish, boshqalarga yo'l berish va jamoat transportida o'rin berish kabi odob-axloq qoidalariga amal qilishni o'z ichiga oladi.

3) Tozalikka rioya qilish. Jumladan, har bir shaxs jamoat joylarini toza saqlash uchun chiqindilarni maxsus belgi qo'yilgan joylarga tashlash shart. Bu bilan u atrof-muhitni muhofaza qilishga yordam berish bilan birga o'z burchini ham bajargan bo'ladi.

4) Xavfsizlik qoidalariga amal qilish. Fuqarolar jamoat joylarida xavfsizlik qoidalariga amal qilishi lozim. Bunga yo'l harakati qoidalariga rioya qilish, xavfsizlik belgi va ko'rsatmalariga amal qilish kabilar kiradi.

5) Jamoat mulkini muhofaza qilish, uni ehtiyotlash va buzmaslik. Masalan, har bir shaxs xiyobonlar, o'rindiqlar, fontanlar va boshqa jamoat joylarini muhofaza qilishni o'zlarining burchi va vazifasi deb bilishi lozim.

Shuni takidlab o'tish kerak, amaldagi qonunchilikni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, jamoat joyi tushunchasi turli normativ-huquqiy hujjatlarda turlicha talqin qilinadi. Xususan, ayrim qonun hujjatlarida jamoat joylari aniq ro'yxat shaklida ko'rsatilgan bo'lsa, boshqalarida esa umumiy tavsif bilan cheklanilgan. Bu esa huquqni qo'llash amaliyotida bir qator muammolarni yuzaga keltiradi. Masalan, ayrim normativ hujjatlarda savdo markazlari yoki ko'p qavatli uylarning umumiy foydalanish hududlari jamoat joyi sifatida ko'rsatilgan bo'lsa, boshqalarida bu masala aniq belgilanmagan. Natijada ma'muriy huquqbuzarliklarni kvalifikatsiya qilish jarayonida turli talqinlar yuzaga kelishi mumkin.

Bundan tashqari, jamoat joyi tushunchasining mazmuni ba'zan "ommaviy joy", "ochiq joy" yoki "ko'pchilik qatnaydigan joy" kabi tushunchalar bilan aralashtirib yuboriladi. Biroq ushbu tushunchalar mazmun jihatidan bir-biridan farq qiladi. Masalan, har bir ommaviy joy ham doimo jamoat joyi bo'lavermaydi, chunki ayrim hududlarda fuqarolarning erkin kirishi cheklangan bo'lishi ham mumkin. Shuningdek, jamoat joylari ro'yxatining turli normativ hujjatlarda har xil ko'rsatilishi ham amaliy muammolarni keltirib chiqaradi. Ayrim hujjatlarda faqat ayrim joylar sanab o'tilgan bo'lib, boshqa shunga o'xshash hududlar qamrab olinmagan. Bu esa jamoat joyi tushunchasining chegaralarini aniq belgilash zaruratini ko'rsatadi.

Jamoat joyi tushunchasi mazmun mohiyatini nafaqat milliy qonunchilikda balki xalqaro tajribalar orqali ham o'rganishimiz mumkin. Chunki, ko'plab rivojlangan davlatlarda jamoat joyi tushunchasiga aniq ta'rif berilgan bo'lib, bu huquqni qo'llash amaliyotidagi birqancha tushunmovchiliklarning oldini olishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan ayrim xorijiy davlatlar tajribasini o'rganishiz kerak. Masalan, Buyuk Britaniya qonunchiligida jamoat joyi deb fuqarolar erkin kirishi mumkin bo'lgan, davlat yoki xususiy mulk bo'lishidan qat'i nazar, keng jamoatchilik foydalanadigan hududlar tushuniladi. Unga quyidagi joylar kiradi: ko'chalar va

maydonlar, istirohat bog'lari, savdo markazlari transport bekatlari va vokzallar, jamoat transporti. Bundan tashqari Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida ham jamoat joyi tushunchasi turli normativ hujjatlarda ko'rsatilgan. Xususan, *Rossiya Federatsiyasi Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksi* ga ko'ra, jamoat joylari fuqarolar erkin kirishi mumkin bo'lgan hamda jamoat tartibini ta'minlash zarur bo'lgan hududlar sifatida talqin qilinadi.[6] Bunday joylarga odatda quyidagilar kiradi: ko'chalar va maydonlar, transport vositalari, istirohat bog'lari va xiyobonlar, savdo obyektlari, davlat muassasalari binolari, vokzallar va aeroportlar.

Xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, jamoat joyi tushunchasini belgilashda asosan quyidagi mezonlar qo'llaniladi Ular fuqarolar uchun erkin kirish imkoniyati mavjudligi, hududdan keng jamoatchilik foydalanishi, ushbu joylarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash zarurligi hisoblanadi. Shu sababli milliy qonunchilikni takomillashtirish jarayonida xorijiy davlatlar tajribasini hisobga olish hamda jamoat joyi tushunchasining aniq va yagona huquqiy ta'rifini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mazkur tadqiqot jamoat joyi tushunchasining huquqiy tartibga solinishi masalasini tahlil qilish orqali amaldagi qonunchilikda ayrim bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatdi. Asosan, jamoat joyi tushunchasi jamiyatda jamoat tartibini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim huquqiy ahamiyatga ega. Shunday bo'lsa ham milliy qonunchilikda bu tushunchaga yagona va aniq huquqiy ta'rif berilmagan. Shu sababli jamoat joyi tushunchasining turli qonun hujjatlarida turlicha talqin qilinishi ma'muriy va jinoiy huquq normalarini qo'llashda qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Bu esa ayrim huquqbuzarliklarni kvalifikatsiya qilishda hamda javobgarlik choralarini belgilashda turli yondashuvlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilish jamoat joyi tushunchasini aniq huquqiy mezonlar asosida belgilash huquqni qo'llash amaliyotida aniqlik va barqarorlikni ta'minlashini ko'rsatadi. Mazkur tajribadan kelib chiqib, milliy qonunchilikda ham jamoat joyi tushunchasining yagona va aniq huquqiy ta'rifini ishlab chiqish, uni normativ-huquqiy hujjatlarda tizimli ravishda mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Jamoat joylarida chilim va elektron sigaretalar chekishni cheklash to'g'risida»gi Qonunning 6-moddasi
2. O'zbekiston Respublikasining "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi qonun 19-moddasi
3. Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi Qonunning 16-moddasi
4. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks
5. Rossiya Federatsiyasi "Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risida"gi kodeksi
6. A. Xudayberdiev, Yu. Iskandarov. Jamoat tartibini ta'minlash masalalariga oid ilmiy qarashlar.
7. Tosh_vil@adliya.uz
8. <https://www.qalampir.uz/>